


## QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2019 yil yanvar-mart)


2019 yil yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, respublikada tashqi savdo aylanmasi 180,2 mln. AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,8 %ga o'sdi. Shu jumladan, eksport hajmi 101,8 mln. AQSh dollarga va import hajmi 78,4 mln. AQSh dollariga yetdi. Tashqi savdo saldosи 23,4 mln. AQSh dollarini tashkil qildi.

**Qoraqalpog'iston Respublikasining tashqi savdo aylanmasi**  
(mln. AQSh dollar)




Joriy yilning yanvar-mart oylarida, respublika tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 37,5 %ni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 93,3 %ni tashkil qilgan, boshqa davlatlarning ulushi esa 62,5 % bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 9,6 %ga oshgan. Shuningdek, eksport hajmida MDH davlatlari 53,3 %ni, boshqa davlatlar 46,7 %ni va import hajmida MDH davlatlari 17,1 %ni, boshqa davlatlar 82,9 %ni tashkil qildi.

**2019 yil yanvar-mart oylarida respublika tashqi savdo aylanmasida  
MDH va boshqa davlatlarning ulushi  
(umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)**



Shu bilan birga ta'kidlab o'tish kerakki, 2019 yilning mart oyida eksport qilingan tovar va xizmatlar, fevral oyiga nisbatan 0,4 mln. AQSh dollarga ko'proq eksport qilindi va 33,9 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Tovar va xizmatlar importi hajmi esa 21,8 mln. AQSh dollarini tashkil qilgan bo'lib, bu esa fevral oyiga nisbatan 3,3 mln. AQSh dollariga kamroqdir.

**2019 yil yanvar-martda tovar va xizmatlarning oylik eksport-import ko'rsatkichlari dinamikasi  
(mln. AQSh dollar)**



2019 yil yanvar-mart oylarida respublika tashqi savdo aylanmasida yuqori ulushga ega davlatlar ketma-ketligi quyidagicha ko`rinish olgan:

**Respublika tashqi savdo aylanmasida  
yuqori ulushga ega davlatlar**

(mln. AQSh dollarri)

| Davlat nomi                    | Tashqi savdo<br>aylanmasi | Eksport | Import | Tashqi savdo aylanmasi |                      |
|--------------------------------|---------------------------|---------|--------|------------------------|----------------------|
|                                |                           |         |        | ulushi, %              | o'sish sur'ati,<br>% |
| <b>Rossiya</b>                 | 45,9                      | 38,2    | 7,8    | 25,5                   | 92,5                 |
| <b>Xitoy</b>                   | 44,8                      | 20,1    | 24,7   | 24,9                   | 92,9                 |
| <b>Turkiya</b>                 | 25,1                      | 15,1    | 10,0   | 13,9                   | 93,2                 |
| <b>Qozog'iston</b>             | 17,8                      | 13,7    | 4,1    | 9,9                    | 94,0                 |
| <b>Koreya<br/>Respublikasi</b> | 11,5                      | 3,5     | 8,0    | 6,4                    | 2,7 b                |
| <b>Latviya</b>                 | 7,2                       | 6,1     | 1,1    | 4,0                    | 98,2                 |
| <b>Buyuk Britaniya</b>         | 7,2                       | -       | 7,2    | 4,0                    | 10,0 b               |
| <b>Vietnam</b>                 | 1,9                       | -       | 1,9    | 1,1                    | 124,9                |
| <b>Litva</b>                   | 1,9                       | -       | 1,9    | 1,0                    | 7,3 b                |
| <b>Eron</b>                    | 1,7                       | -       | 1,7    | 0,9                    | 62,0 b               |
| <b>Germaniya</b>               | 1,6                       | 0,1     | 1,5    | 0,9                    | 3,0 b                |
| <b>Turkmaniston</b>            | 1,5                       | 0,2     | 1,3    | 0,8                    | 5,0 b                |
| <b>Estoniya</b>                | 1,5                       | 0,8     | 0,7    | 0,8                    | 2,1 b                |

Respublikamizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2019 yil yanvar-mart oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 37,5 %ni tashkil etdi hamda tashqi savdo aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 93,3 %ni tashkil etdi. Boshqa xorijiy davlatlarning respublika tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2018 yilning yanvar-mart oylarida 58,6 %ni tashkil qilgan bo'lsa, joriy yilning ushbu davrida esa tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 62,5 %ga etdi.

**Qoraqalpog'iston Respublikasining ayrim hamkor  
davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi dinamikasi**

(mln.AQSh dollar)


| Davlat nomi                | 2017 yil yanvar-mart | 2018 yil yanvar-mart | 2019 yil yanvar-mart |
|----------------------------|----------------------|----------------------|----------------------|
| <b>Rossiya</b>             | <b>25,9</b>          | <b>49,7</b>          | <b>45,9</b>          |
| eksport                    | 17,1                 | 35,4                 | 38,2                 |
| import                     | 8,9                  | 14,3                 | 7,8                  |
| saldo                      | 8,2                  | 21,1                 | 30,4                 |
| <b>Xitoy</b>               | <b>48,6</b>          | <b>48,2</b>          | <b>44,8</b>          |
| eksport                    | 42,8                 | 35,1                 | 20,1                 |
| import                     | 5,9                  | 13,2                 | 24,7                 |
| saldo                      | 36,9                 | 21,9                 | -4,6                 |
| <b>Turkiya</b>             | <b>31,9</b>          | <b>26,9</b>          | <b>25,1</b>          |
| eksport                    | 28,4                 | 25,9                 | 15,1                 |
| import                     | 3,5                  | 1,1                  | 10,0                 |
| saldo                      | 25,0                 | 24,8                 | 5,0                  |
| <b>Qozog'iston</b>         | <b>8,4</b>           | <b>19,0</b>          | <b>17,8</b>          |
| eksport                    | 8,3                  | 15,1                 | 13,7                 |
| import                     | 0,2                  | 3,9                  | 4,1                  |
| saldo                      | 8,1                  | 11,2                 | 9,6                  |
| <b>Koreya Respublikasi</b> | <b>6,2</b>           | <b>4,3</b>           | <b>11,5</b>          |
| eksport                    | 0,1                  | 0,2                  | 3,5                  |
| import                     | 6,1                  | 4,1                  | 8,0                  |
| saldo                      | -5,9                 | -3,8                 | -4,4                 |
| <b>Latviya</b>             | <b>11,9</b>          | <b>7,3</b>           | <b>7,2</b>           |
| eksport                    | 11,7                 | 7,2                  | 6,1                  |
| import                     | 0,2                  | 0,1                  | 1,1                  |
| saldo                      | 11,5                 | 7,1                  | 5,1                  |
| <b>Buyuk Britaniya</b>     | <b>0,3</b>           | <b>0,7</b>           | <b>7,2</b>           |

| <b>Davlat nomi</b>  | <b>2017 yil yanvar-mart</b> | <b>2018 yil yanvar-mart</b> | <b>2019 yil yanvar-mart</b> |
|---------------------|-----------------------------|-----------------------------|-----------------------------|
| eksport             | -                           | -                           | -                           |
| import              | 0,3                         | 0,7                         | 7,2                         |
| saldo               | -0,3                        | -0,7                        | -7,2                        |
| <b>Vietnam</b>      | <b>-</b>                    | <b>1,5</b>                  | <b>1,9</b>                  |
| eksport             | -                           | 0,6                         | -                           |
| import              | -                           | 1,0                         | 1,9                         |
| saldo               | -                           | -0,4                        | -1,9                        |
| <b>Litva</b>        | <b>0,2</b>                  | <b>0,3</b>                  | <b>1,9</b>                  |
| eksport             | -                           | -                           | -                           |
| import              | 0,2                         | 0,3                         | 1,9                         |
| saldo               | -0,2                        | -0,3                        | -1,9                        |
| <b>Eron</b>         | <b>0,5</b>                  | <b>-</b>                    | <b>1,7</b>                  |
| eksport             | 0,5                         | -                           | -                           |
| import              | -                           | -                           | 1,7                         |
| saldo               | 0,5                         | -                           | -1,7                        |
| <b>Germaniya</b>    | <b>0,9</b>                  | <b>0,5</b>                  | <b>1,6</b>                  |
| eksport             | -                           | -                           | 0,1                         |
| import              | 0,9                         | 0,5                         | 1,5                         |
| saldo               | -0,9                        | -0,5                        | -1,4                        |
| <b>Turkmaniston</b> | <b>0,1</b>                  | <b>0,3</b>                  | <b>1,5</b>                  |
| eksport             | 0,1                         | 0,1                         | 0,2                         |
| import              | -                           | 0,2                         | 1,3                         |
| saldo               | 0,1                         | -0,2                        | -1,1                        |
| <b>Estoniya</b>     | <b>0,4</b>                  | <b>0,7</b>                  | <b>1,5</b>                  |
| eksport             | 0,4                         | 0,7                         | 0,8                         |
| import              | -                           | -                           | 0,7                         |
| saldo               | 0,4                         | 0,7                         | 0,1                         |


## EKSPORT

2019 yil yanvar-mart oylarida eksport hajmi 101,8 mln. AQSh dollariga teng bo'ldi. Eksport tarkibida tovarlar 99,6 % ulushga ega, bular asosan kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (86,1 %), oziq-ovqat mahsulotlari (5,8 %) guruhlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Tovar va xizmatlar eksporti tarkibi  
(mln.AQSh dollar)**



**Tovar va xizmatlar eksporti ulushi, (%)**




**Eksport tarkibi**

|   | Jami            |                          |                           | MDH davlatlari  |                          |                           | Boshqa davlatlar |                          |                           |
|---|-----------------|--------------------------|---------------------------|-----------------|--------------------------|---------------------------|------------------|--------------------------|---------------------------|
|   | mln. AQSh doll. | o'tgan yilga nisbatan, % | umumiy hajmga nisbatan, % | mln. AQSh doll. | o'tgan yilga nisbatan, % | umumiy hajmga nisbatan, % | mln. AQSh doll.  | o'tgan yilga nisbatan, % | umumiy hajmga nisbatan, % |
| <b>Eksport</b>                                  | 101,8           | 81,2                     | 100                       | 54,2            | 102,5                    | 100                       | 47,6             | 65,7                     | 100                       |
| <b>Oziq-ovqat mahsulotlari</b>                  | 6,0             | 82,4                     | 5,8                       | 1,8             | 79,1                     | 3,3                       | 4,1              | 83,9                     | 8,7                       |
| <b>Kimyo mahsulotlari va buyumlari</b>          | 87,7            | 78,3                     | 86,1                      | 50,7            | 103,4                    | 93,5                      | 37,0             | 58,7                     | 77,7                      |
| <b>Energiya manbaalari va neft mahsulotlari</b> | 1,9             | 98,0                     | 1,9                       | 0,8             | 2,8 b                    | 1,5                       | 1,1              | 66,5                     | 2,4                       |
| <b>Mashina va asbob- uskunalar</b>              | -               | -                        | -                         | -               | -                        | -                         | -                | -                        | -                         |
| <b>Xizmatlar</b>                                | 0,4             | 151,2                    | 0,4                       | 0,4             | 156,0                    | 0,7                       | 0,1              | 124,0                    | 0,1                       |
| <b>Boshqalar</b>                                | 5,8             | 157,4                    | 5,7                       | 0,5             | 53,8                     | 0,9                       | 5,3              | 191,7                    | 11,1                      |

Eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning oylar kesimidagi o'sish sur'atlari bo'yicha keltirilgan ma'lumotlardan shuni ko'rishimiz mumkinki, joriy yilning yanvar-mart oylari davomida eng yuqori o'sish sur'ati mart oyida kuzatilgan.

## Tovar va xizmatlar eksportining o'sish sur'atlari (o'tgan oyga nisbatan, %)




Shuningdek, tovar va xizmatlar eksporti o'sish sur'atlarining tahliliga asosan, 2019 yilning mart oyida eksport qilingan tovar va xizmatlar fevral oyiga nisbatan 3,7 %ga oshgan.

Xizmatlar eksporti hajmi 0,4 mln. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 0,4 % ini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 51,2 %ga o'sganligi kuzatildi.


Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi moliyaviy xizmatlar (47,4 %), safarlar (45,0 %) va transport xizmatlari (5,8 %) hissasiga to'g'ri keladi.

### Xizmatlar eksporti tarkibi, (%)

2018 yil



2019 yil




Transport xizmatlari  
 Safarlar

Boshqalar  
 Moliyaviy xizmatlar


Tovar va xizmatlar eksporti dinamikasi tahliliga ko'ra, 2019 yilning mart oyi mobaynida eksport qilingan tovarlar hajmi, fevral oyiga nisbatan 0,4 mln. AQSh dollariga ko'p eksport qilindi va 33,8 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar eksporti esa 0,4 mln. AQSh dollarga etgan.

**2019 yil yanvar-martda tovarlar va xizmatlar eksporti dinamikasi**  
(oylar kesimida, mln. AQSh dollar)




**Respublika eksportida asosiy hamkor davlatlarning ulushi**  
(yanvar-mart)

**2018 YIL**



**2019 YIL**



Eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Xitoy va Turkiya hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bu esa umumiyligida eksport hajmining 72,1 % ini tashkil qiladi. Rossiya Federatsiyasi, Xitoy va Turkiyaga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga nazar tashlasak, asosan kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlardan iborat ekanligini ko'rishimiz mumkin.

**Qoraqalpog'iston Respublikasining  
asosiy hamkor davlatlarga amalga oshirgan eksport hajmi**

| Davlat nomi         | Mln. AQSh doll.  |                  | Ulushi, %        |                  | O'rni            |                  |
|---------------------|------------------|------------------|------------------|------------------|------------------|------------------|
|                     | 2018 yanvar-mart | 2019 yanvar-mart | 2018 yanvar-mart | 2019 yanvar-mart | 2018 yanvar-mart | 2019 yanvar-mart |
| Rossiya             | 35,4             | 38,2             | 28,2             | 37,5             | 1                | 1                |
| Xitoy               | 35,1             | 20,1             | 28,0             | 19,8             | 2                | 2                |
| Turkiya             | 25,9             | 15,1             | 20,6             | 14,8             | 3                | 3                |
| Qozog'iston         | 15,1             | 13,7             | 12,0             | 13,5             | 4                | 4                |
| Koreya Respublikasi | 0,2              | 3,5              | 0,2              | 3,5              | 11               | 5                |
| Latviya             | 7,2              | 6,1              | 5,8              | 6,0              | 5                | 6                |
| Qirg'iziston        | 1,0              | 1,0              | 0,8              | 0,9              | 6                | 7                |
| Estoniya            | 0,7              | 0,8              | 0,5              | 0,8              | 9                | 8                |
| Tojikiston          | 0,5              | 0,7              | 0,4              | 0,7              | 10               | 9                |
| Ukraina             | 0,7              | 0,5              | 0,6              | 0,5              | 7                | 10               |
| Iraq                | 0,7              | 0,5              | 0,6              | 0,5              | 8                | 11               |

**Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti**

2019 yilning yanvar-mart oylarida jami 5263,7 tonna meva-sabzavot mahsulotlari 2038,4 ming AQSh dollariga eksport qilindi (o'sish sur'ati – 78,8 %). Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 2019 yilning yanvar-mart oylarida 4542,2 tonna sabzavotlar 1432,9 ming AQSh dollariga eksport qilingan.

Shuningdek, 365,3 tonna meva va rezavorlar 294,9 ming AQSh dollariga eksport qilingan bo'lib, eksport hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 6,1 tonnaga kamaygan.

### Meva-sabzavot mahsulotlarining tarkibi




Shuni aytib o'tish joizki, mamlakatimizda eksport salohiyatini kengaytirish, yangi bozorlarni o'zlashtirish natijasida meva-sabzavot mahsulotlari, uzum, poliz, dukkakli ekinlar, shuningdek, quritilgan sabzavot va mevalarni eksport qilish hajmi oshib bormoqda. Jumladan, 2019 yilning yanvar-mart oylarida uzum va qovun-tarvuz eksport hajmi 309,1 ming AQSh dollariga yetdi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 5,9 barobarga o'sgan).

**Respublikamizda yetishtirilgan meva va sabzavot mahsulotlarining  
asosiy bozorlari eksport geografiyasi**


| Davlat nomi  | 2018 yil yanvar-mart |                 |           | 2019 yil yanvar-mart |                 |           |
|--------------|----------------------|-----------------|-----------|----------------------|-----------------|-----------|
|              | tonna                | ming AQSh doll. | ulushi, % | tonna                | ming AQSh doll. | ulushi, % |
| Qozog'iston  | 12 755,2             | 2 145,5         | 83,0      | 2 895,2              | 1 328,4         | 65,2      |
| Rossiya      | 160,7                | 84,4            | 3,3       | 1 271,4              | 264,7           | 13,0      |
| Bolgariya    | -                    | -               | -         | 45,0                 | 209,5           | 10,3      |
| Ukraina      | -                    | -               | -         | 21,5                 | 101,1           | 5,0       |
| Turkiya      | -                    | -               | -         | 502,6                | 66,0            | 3,2       |
| Ruminiya     | -                    | -               | -         | 252,0                | 36,3            | 1,8       |
| Turkmaniston | -                    | -               | -         | 275,9                | 32,5            | 1,6       |

**2019 yil yanvar-martida meva va sabzavot mahsulotlarining tarkibi  
(umumiylajmaga nisbatan foiz hisobida)**

**2018 yil**




**2019 yil**




## IMPORT

Joriy yilning yanvar-mart oylarida import hajmi 78,4 mln. AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 56,9 %ga o'sdi. Import tarkibida eng katta ulush mashina va asbob uskunalar (63,9 %), kimyo mahsulotlari va buyumlari (8,1 %), oziq-ovqat mahsulotlari (6,5 %) va xizmatlar (4,4 %) guruhlari hisobiga to'g'ri keldi.

**Tovar va xizmatlar importi tarkibi**  
(ming AQSh dollarari)



**Tovar va xizmatlar importi ulushi, (%)**




### Import tarkibi

|   | Jami            |                             |                              | MDH davlatlari  |                          |                              | Boshqa davlatlar |                          |                              |
|---|-----------------|-----------------------------|------------------------------|-----------------|--------------------------|------------------------------|------------------|--------------------------|------------------------------|
|   | mln. AQSh doll. | o'tgan yilga nisbatan,<br>% | umumiylajmaga<br>nisbatan, % | mln. AQSh doll. | o'tgan yilga nisbatan, % | umumiylajmaga<br>nisbatan, % | mln. AQSh doll.  | o'tgan yilga nisbatan, % | umumiylajmaga<br>nisbatan, % |
| <b>Import</b>                                   | 78,4            | 156,9                       | 100                          | 13,4            | 68,3                     | 100                          | 64,9             | 2,1 b                    | 100                          |
| <b>Oziq-ovqat mahsulotlari</b>                  | 5,1             | 2,2 b                       | 6,5                          | 4,9             | 2,1 b                    | 36,2                         | 0,2              | 5,0 b                    | 0,4                          |
| <b>Kimyo mahsulotlari va buyumlari</b>          | 6,4             | 130,5                       | 8,1                          | 0,8             | 57,2                     | 5,8                          | 5,6              | 158,9                    | 8,6                          |
| <b>Energiya manbaalari va neft mahsulotlari</b> | 1,8             | 94,1                        | 2,3                          | 0,1             | 12,4                     | 1,0                          | 1,6              | 2,0 b                    | 2,5                          |
| <b>Qora va rangli metallar</b>                  | 1,1             | 59,6                        | 1,4                          | 0,1             | 9,4                      | 0,9                          | 1,0              | 167,5                    | 1,5                          |
| <b>Mashina va asbob-uskunalar</b>               | 50,1            | 2,2 b                       | 63,9                         | 1,8             | 139,0                    | 13,4                         | 48,3             | 2,3 b                    | 74,4                         |
| <b>Xizmatlar</b>                                | 3,5             | 193,6                       | 4,4                          | 0,5             | 102,3                    | 4,0                          | 2,9              | 2,3 b                    | 4,5                          |
| <b>Boshqalar</b>                                | 10,5            | 72,0                        | 13,4                         | 5,2             | 43,8                     | 38,8                         | 5,3              | 197,4                    | 8,1                          |

Import qilingan tovar va xizmatlarning oylar kesimidagi o'sish sur'atlari bo'yicha quyida keltirilgan ma'lumotlardan shuni ko'rishimiz mumkinki, joriy yilning yanvar-mart oylari davomida eng yuqori o'sish sur'atlari mart oyida kuzatilgan.

## Tovarlar va xizmatlar importining o'sish sur'atlari dinamikasi (o'tgan oyga nisbatan, %)



Shuningdek, tovar va xizmatlar importi o'sish sur'atlarining tahliliga asosan, 2019 yilning mart oyida import qilingan tovar va xizmatlar fevral oyiga nisbatan 7,6 %ga oshgan.


### Qoraqalpog'iston Respublikasiga asosiy hamkor davlatlardan amalga oshirilgan import hajmi

| Davlat nomi            | Mln. AQSh doll.        |                        | Ulushi, %              |                        | O'rni                  |                        |
|------------------------|------------------------|------------------------|------------------------|------------------------|------------------------|------------------------|
|                        | 2018 y.<br>yanvar-mart | 2019 y.<br>yanvar-mart | 2018 y.<br>yanvar-mart | 2019 y.<br>yanvar-mart | 2018 y.<br>yanvar-mart | 2019 y.<br>yanvar-mart |
| Xitoy                  | 13,2                   | 24,7                   | 26,4                   | 31,6                   | 2                      | 1                      |
| Turkiya                | 1,1                    | 10,0                   | 2,1                    | 12,8                   | 5                      | 2                      |
| Koreya<br>Respublikasi | 4,1                    | 8,0                    | 8,1                    | 10,2                   | 3                      | 3                      |
| Rossiya                | 14,3                   | 7,8                    | 28,6                   | 9,9                    | 1                      | 4                      |
| Buyuk<br>Britaniya     | 0,7                    | 7,2                    | 1,4                    | 9,1                    | 7                      | 5                      |
| Qozog'iston            | 3,9                    | 4,1                    | 7,8                    | 5,2                    | 4                      | 6                      |


|              |      |     |     |     |    |    |
|--------------|------|-----|-----|-----|----|----|
| Vietnam      | 1,0  | 1,9 | 1,9 | 2,5 | 6  | 7  |
| Litva        | 0,3  | 1,9 | 0,5 | 2,4 | 9  | 8  |
| Eron         | 0,03 | 1,7 | 0,1 | 2,1 | 12 | 9  |
| Germaniya    | 0,5  | 1,5 | 1,0 | 1,9 | 8  | 10 |
| Polsha       | 0,2  | 1,4 | 0,3 | 1,8 | 11 | 11 |
| Turkmaniston | 0,2  | 1,3 | 0,5 | 1,6 | 10 | 12 |

### Xizmatlar importi tarkibi, (%)

2018 yil




2019 yil



- █ Transport xizmatlari
- █ Texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash xizmatlari
- █ Telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari
- █ Boshqalar
- █ Moliyaviy xizmatlar


Xizmatlar importi hajmi 3,5 mln. AQSh dollarini yoki jami import hajmining 4,4 %ini tashkil etdi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 93,6 %ga o'sdi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi boshqa ish yuzasidagi xizmatlar (83,0 %) hamda texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash xizmatlari (10,4 %)dan iborat bo'ldi.

## 2019 yil yanvar-martda tovarlar va xizmatlar importi dinamikasi (oylar kesimida, mln. AQSh dollari)



Shu bilan birga ta'kidlab o'tish kerakki, 2019 yilning o'tgan davri mobaynida respublikaga import qilinayotgan tovar va xizmatlar mart oyida, fevral oyiga nisbatan 3,3 mln. AQSh dollarga kam import qilingan bo'lib, shundan tovarlar 3,1 mln. AQSh dollarga va xizmatlar 0,2 mln. AQSh dollarga kam import qilingan.

### Respublika importida asosiy hamkor davlatlarning ulushi (yanvar-mart)



2019 yilning yanvar-mart oylarida respublikaga 45 dan ortiq xorijiy davlatlardan tovar va xizmatlar importi amalga oshirilgan. Shulardan 6 ta eng yirik bo'lgan Xitoy Xalq Respublikasi, Turkiya, Koreya Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Buyuk Britaniya va Qozog'iston hamkor davlatlaridan jami import hajmi 61,7 mln. AQSh dollariga teng. Bu esa umumiy import hajmining 78,8 %ini tashkil qiladi.

Yuqorida qayd etib o'tilganidek, import tarkibida asosiy ulushni tashkil qilayotgan mashina va asbob-uskunalar, kimyo mahsulotlari va buyumlari hamda oziq-ovqat mahsulotlari asosan qaysi davlatlardan respublikamizga olib kirilayotganlini quyidagi sxemalardan ko'rish mumkin.

#### **Mashina va usbob-uskunalar import qilingan asosiy hamkor davlatlar**

| DAVLAT NOMI              | XITOY | BUYUK BRITANIYA | TURKIYA | KOREYA RESPUBLIKASI | VIETNAM |
|--------------------------|-------|-----------------|---------|---------------------|---------|
| MLN. AQSH DOLL.          | 23,3  | 6,6             | 5,9     | 3,1                 | 1,9     |
| O'TGAN YILGA NISBATAN, % | 197,5 | 66,0 m.         | 7,4 m.  | 15,5 m.             | 190     |
| ULUSHI, %                | 46,6  | 13,3            | 11,9    | 6,3                 | 3,7     |

#### **Kimyo mahsulotlari va buyumlari import qilingan asosiy hamkor davlatlar**

| DAVLAT NOMI              | KOREYA RESPUBLIKASI | POLSHA | ROSSIYA | TURKIYA | ERON |
|--------------------------|---------------------|--------|---------|---------|------|
| MLN. AQSH DOLL.          | 2,5                 | 1,0    | 0,7     | 0,5     | 0,4  |
| O'TGAN YILGA NISBATAN, % | 192,3               | 10 m.  | 87,5    | 2,5 m.  | -    |
| ULUSHI, %                | 38,7                | 15,3   | 10,2    | 8,3     | 6,9  |

### Oziq-ovqat mahsulotlari import qilingan asosiy hamkor davlatlar

| DAVLAT NOMI              | QOZOG'ISTON | ROSSIYA | TURKMENISTON | XITOY |
|--------------------------|-------------|---------|--------------|-------|
| MLN. AQSH DOLL.          | 3,3         | 1,2     | 0,3          | 0,2   |
| O'TGAN YILGA NISBATAN, % | 2,1 m.      | 12 m.   | -            | -     |
| ULUSHI, %                | 65,5        | 23,2    | 6,0          | 4,0   |

Yurtimizda tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va dunyo mamlakatlari bilan olib borilayotgan mustahkam aloqalar natijasida mamlakatimizning eksport salohiyati oshib bormoqda.

Shuningdek, hukumatimiz tomonidan bir qator soliq, bojxona imtiyozlarining yaratilishi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarilishi milliy mahsulotlarimizni tashqi bozorlarda mustahkam o'rin egallashlari uchun zamin yaratmoqda.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'lumi  
Tel.:71-230-82-06**